

**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI
UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISHDA
AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

**РЕАЛИЗОВАННЫЕ РЕФОРМЫ В ПОДГОТОВКЕ И ПОВЫШЕНИИ КАДРОВ
ДЛЯ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В РЕФОРМИРУЕМОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**IMPLEMENTED REFORMS IN THE TRAINING AND PROFESSIONAL
IMPROVEMENT OF PERSONNEL FOR THE INTERNAL AFFAIRS BODIES IN
THE REFORMING UZBEKISTAN**

Mayor, Rustamov Yusuf Erkinovich

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
kurs boshlig'ining o'rinbosari*

*Safdor, Abdurahmonov Toshmurod Dilmurodjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
3-kurs kursanti*

Anotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, sohani huquqiy jihatdan tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni ilmiy amaliy tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье научно и практически анализируются реформы, реализуемые в системе органов внутренних дел нашей страны сегодня, а также содержание нормативных правовых документов, регулирующих эту сферу с правовой точки зрения.

Annotation: In this article, the reforms implemented in the system of internal affairs bodies in our country today, as well as the contents of the normative legal documents regulating the field from a legal point of view, are scientifically and practically analyzed.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlari, huquqiy jihatdan tartibga solish, amalga oshirish mexanizmi, uzluksiz ta'lim, huquqbuzarliklar profilaktikasi, tashkiliy-taktik boshqaruv, tashkiliy-strategik boshqaruv.

Ключевые слова: органы внутренних дел, правовое регулирование, механизм реализации, непрерывное образование, профилактика преступности, организационно-тактическое управление, организационно-стратегическое управление.

Key words: Internal affairs bodies, legal regulation, implementation mechanism, continuous education, crime prevention, organizational-tactical management, organizational-strategic management.

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, unda ichki ishlar organlari muhim o‘rin egallaydi.

O‘tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida** ham Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish vazifasi belgilanganligi bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlaridan katta malaka, qobiliyat, kuchli bilim va ko‘nikma talab etadi. Bugungi kunda ichki ishlar organlarini xalqchil tuzilmaga aylantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning **“Taraqqiyot strategiyasi”**da quyidagi asosiy vazifalar barcha miqyosda ichki ishlar organlarida joriy etilishi zarurligi belgilandi:

- **Ichki ishlar organlari xodimlarining “Kasbiy madaniyat kodeksi”ni amaliyotga tatbiq etilishi;**
- **Ichki ishlar organlarini ma‘naviy pok, o‘z burchiga sodiq, xalqparvar va mas‘uliyatli xodimlar bilan to‘ldirish, ularning faoliyatini aholi muammolarini hal etish va fuqarolar murojaatlari bilan ishlash natijadorligi hamda ijtimoiy fikr asosida baholash tizimini joriy etilishi;**
- **Ichki ishlar vazirligi va hududiy ichki ishlar organlarida Jamoatchilik kengashlarini tuzish orqali tizim faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini yaratilishi;**
- **Ichki ishlar organlarini maksimal darajada “Aholi bilan maqsadli ishlash”ga yo‘naltirish, uning xizmat faoliyatiga xos bo‘lmagan funktsiya va tuzilmalarini maqbullashtirilishi;¹**

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.

О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-son “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga muvofiq, xozirgi vaqtda ichki ishlar organlari tizimida quyidagi keng qamrovli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda:

birinchidan — xodimlarni, shu jumladan ularni xizmat faoliyatidan ajratmagan holda o‘qitish va maxsus kasbiy tayyorlash, majburiy qayta tayyorlash va doimiy malakasini oshirib borishning ichki ishlar organlari kadrlar salohiyatini oshirishga imkon beradigan sifat jihatdan yangi tizimini tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

ikkinchidan — yoshlarda ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan dastlabki kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadigan idoraviy oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash bo‘yicha samarali tartibni joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

uchinchidan — asosiy qismi sohaviy fanlarni o‘qitishdan tarkib topgan, shuningdek hududiy ichki ishlar organlariga bevosita chiqishni va tergov-tezkor tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etishni nazarda tutgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishni o‘z ichiga olgan yangilangan ta’lim standartlar va o‘quv dasturlarni ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda.

to‘rtinchidan — ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar tarkibini malakali ilmiy-pedagogik, birinchi navbatda sohaviy fanlarni o‘qitishga ixtisoslashgan kadrlar bilan jamlash, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni o‘quv jarayoniga keng jalb etish ishlari amalga oshirilmoqda

beshinchidan — o‘qitishning zamonaviy shakl va usullarini, eng yangi pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan situatsion mashg‘ulotlarni, masofadan o‘qitish tizimini keng joriy etish, ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarni global axborot-huquqiy va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

oltinchidan — idoraviy ta’lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini amaliyot ehtiyojini hamda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish istiqbollari inobatga olgan holda tizimli ravishda maqbullashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

yettinchidan — ichki ishlar organlari faoliyatida, birinchi navbatda huquqbuzarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv faoliyati va jinoyatlarni tergov qilish sohasida mavjud bo'lgan muammolar bo'yicha fundamental va amaliyotga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi samaradorligini oshirilmoqda.

sakkizinchidan — yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha tajriba almashish, hamkorlikdagi ta'lim dasturlarini joriy etish, professor-o'qituvchilar tarkibini, xorijiy tillarni o'qitishni nazarda tutgan holda, malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda.⁵

Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2021-yil 15-apreldagi "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risida qarori** qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra:

➤ 2021-2022 o'quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi joriy etildi.

➤ IIV Akademiyasidagi ta'lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratiladi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o'qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda amalga oshirilishi belgilandi;

➤ Akademiyaning magistratura dasturi bo'yicha o'qitish ichki ishlar organlarining rahbar kadrlarini tayyorlash maqsadida ikkinchi darajadagi **"tashkiliy-taktik boshqaruv"** va **birinchi darajadagi "tashkiliy-strategik boshqaruv"** yo'nalishlarida tashkil etildi;

➤ Ichki ishlar vazirligining Malaka oshirish instituti tarkibiga **Akademiyaning kasbiy tayyorgarlik fakulteti** o'tkazildi.

➤ Ichki ishlar organlarining **uzluksiz o'quv-karyera** jarayoni tizimi joriy etildi

➤ 2021-yil 1-sentabrdan boshlab ichki ishlar organlarining safdor tarkibidagi lavozimlariga nomzodlar faqat idoraviy akademik litseylar, harbiy-akademik litseylar bitiruvchilari, profilaktika inspektorining yordamchilari, shuningdek, oliy ma'lumotga ega yoki sirtqi ta'lim shakli bo'yicha tahsil olayotgan shaxslar orasidan qabul qilinishi belgilandi.

➤ 2021-yil 1-sentabrdan boshlab ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlarida xizmatni o'tash uchun faqat oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar qabul qilinishi tartibi joriy etildi.²

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berildi. Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining barcha yo'nalishlari bo'yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash, ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv dasturlari asosida o'qitish, ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda, shu jumladan turdosh yo'nalishdagi respublika oliy ta'lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish institutning asosiy vazifasi sifatida belgilandi.

Tizimdagi muommolarni oldini olish va sifatli kadrlar tayyorlash maqsadida ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatdan ajralmagan holda bevosita joylarda malakasini oshirishni ta'minlash uchun masofaviy va mobil sayyor kurslarni o'tkazish amaliyotini joriy etilishi esa albatta xodimlarning bilim va salohiyatlarini yanada oshirish uchun xizmat qiladi.

Qaror asosida quyidagi yangi tartiblar:

- ✓ Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetida besh oylik dastur bo'yicha ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlariga nomzodlarni maxsus kasbiy tayyorlash amalga oshirilishi;
- ✓ kasbiy tayyorgarlik fakultetini tamomlagan xodimlarga "kichik serjant" maxsus unvoni hamda belgilangan namunadagi diplom berilishi;
- ✓ ichki ishlar organlari rahbar tarkibining tegishli lavozimlariga tayinlanish uchun Akademiya magistraturasida o'qish shartligi;
- ✓ xodimlarga maxsus unvonlar berilishining hamda safdor va serjantlar tarkibidagi xodimlar ofitserlik lavozimlariga tayinlanishining asosiy talablaridan biri sifatida ularning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishi joriy etildi.²

Bularning barchasi albatta xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini oshirish ichki ishlar organlari uchun sifatli, professional kadrlar tayyorlashga katta zamin yaratadi. Tizim faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish borasida amalga oshirilgan ishlar hamda buning doirasida respublikaning har bir hududida o'tkazilgan **kompleks tezkor-profilaktik tadbirlar** mamlakatimizda kriminogen vaziyatning barqarorligini ta'minlash uchun zamin yaratdi. Xodimlarning har qanday vaziyatda strategik ilg'or fikrlaydigan, yetuk salohiyatli bo'lishi xalq

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076 son "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risida qarori.

manfaatlarini har qachon va har qanday vaziyatda ishonchli taminlashga xizmat qiladi. albatta. Buning uchun esa doimiy ravishda xodimlarning kasbiy salohiyat va malakasini oshirib borish muhimdir. Bu borada statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, joriy yiling yakuniga qadar **17 mingdan ortiq** xodimlarning **kasbiy malakasi** oshiriladi, **2 mingdan ortiq** profilaktika inspektorlari bilan **sayyor o'quv kurslar** o'tkaziladi, xodimlarning **jangovar shaylik** darajasini oshirish maqsadida **200 ta taktik o'quv mashg'ulotlari** o'tkaziladi. O'z navbatida, xodimlarning **ma'naviy dunyoqarashini** oshirish, fuqarolar bilan **xushmuomalada bo'lishini** ta'minlash borasida har bir xodimning xatti-harakatlariga **alohida baho** berishga hamda uning xulq-atvoridan kelib chiqib, **aniq tarbiyaviy** tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan **"xodimbay"** tizimi joriy etiladi.³

Albatta bu islohotlar xalq manfaatlarini yo'lida vatan tinchligini saqlash, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini taminlashda ichki ishlar organlarini o'nini oshirishga xizmat qilad.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 16-sentyabr kunidagi "Ichki ishlar organlari" to'g'risidagi qonuni. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076 son "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risida qarori. www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. www.lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-son "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. www.lex.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi

³ www.iiv.uz/35874/uz

kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. www.lex.uz

Elektron manbalar:

1. www.lex.uz
2. www.iiv.uz
3. www.stat.uz
4. www.akadmvd.uz
5. www.pm.gov.uz
6. www.gov.uz
7. www.minjust.uz